


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIYAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDIIY MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI.....	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	

MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKTULARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI



Anvar Raximov Maxmarasulovich

**Toshkent davlat yuridik universiteti Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya. Mehnatga haq to'lash korxona xarajatlari bilan xodimning iqtisodiy manfaatlarini o'zaro bog'laydigan muhim hisob jarayonidir. Ish haqi xodim uchun bajarilgan mehnat evaziga olinadigan daromad bo'lsa, korxona nuqtayi nazaridan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan xarajat hisoblanadi. Maqolada mehnatga haq to'lashning ana shu ikki tomonlama iqtisodiy xususiyati ochib berilgan. Ish haqi tarkibiga kiruvchi to'lovlar ularning vazifasi, hisoblanish usuli va yuzaga kelish sabablariga ko'ra guruhlariga ajratilgan. Xususan, asosiy va qo'shimcha ish haqi, rag'batlantiruvchi ustamalar, kompensatsiyalar, ta'til uchun to'lovlar hamda ishlanmagan vaqtga tegishli boshqa to'lovlarning hisobda aks ettirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. O'rganish natijalari mehnatga haq to'lash bilan bog'liq har bir to'lovni to'g'ri tasniflash korxona xarajatlari aniq shakllantirish, xodimlar oldidagi majburiyatlarni haqqoniy ko'rsatish va moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchligini oshirish uchun zarur ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mehnatga haq to'lash, ish haqi, mehnat xarajatlari, asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqi, rag'batlantirish, kompensatsiya, hisob obyektlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar.

Abstract. Wage payment is an important accounting process that links a company's costs with an employee's economic interests. While wages are income received by an employee in exchange for labor performed, from the company's perspective, they are an expense directed toward producing goods or providing services. The article reveals this dual economic nature of labor compensation. The payments that make up wages are classified into groups according to their function, method of calculation, and the reasons for their occurrence. In particular, the accounting treatment of basic and supplementary wages, incentive premiums, compensations, vacation pay, and other payments for non-worked time is examined. The study's findings indicate that the proper classification of each payment related to labor compensation is necessary for accurately shaping the company's expenses. The study's results indicate that the proper classification of each payment related to labor compensation is necessary to accurately form the company's expenses, fairly present its obligations to employees, and increase the reliability of financial reporting information.

Keywords: wage payment, salary, labor costs, base salary, additional salary, incentives, compensation, accounting objects, settlements with employees.

Аннотация. Выплата заработной платы — важный бухгалтерский процесс, который связывает расходы компании с экономическими интересами работника. Хотя заработная плата представляет собой доход, получаемый работником в обмен на выполненную работу, с точки зрения предприятия она является расходом, направленным на производство товаров или оказание услуг. В статье раскрывается эта двойственная экономическая природа вознаграждения за труд. Выплаты, составляющие заработную плату, классифицируются в зависимости от их функции, метода расчёта и причин их возникновения. В частности, рассматривается бухгалтерский учёт основной и дополнительной заработной платы, поощрительных премий, компенсаций, отпускных и других выплат за нерабочее время. Результаты исследования показывают, что правильная классификация каждой выплаты, связанной с вознаграждением, имеет решающее значение для точного отражения расходов компании. Полученные в ходе исследования выводы указывают на то, что правильная классификация каждой выплаты, связанной с оплатой труда, необходима для точного формирования расходов компании, объективного отражения её обязательств перед работниками и повышения достоверности информации финансовой отчётности.

Ключевые слова: выплата заработной платы, оклад, затраты на рабочую силу, базовый оклад, дополнительная заработная плата, поощрения, компенсации, объекты учёта, расчёты с работниками.



KIRISH

Mehnatga haq to'lash xodimning bajargan mehnatini pul shaklida baholash bilan birga, korxona xarajatlari va xodim oldidagi majburiyatlarni shakllantiruvchi iqtisodiy jarayondir. Xodim uchun ish haqi asosiy daromad manbai bo'lsa, ish beruvchi uchun mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajat hisoblanadi. Shu sababli ish haqini faqat to'langan pul sifatida emas, balki mehnat natijasi, xarajat va majburiyat o'rtasidagi bog'liqlik asosida o'rganish lozim.

Ish haqining miqdori xodimning mehnat unumdorligi va ish natijalariga bo'lgan qiziqishiga bevosita ta'sir qiladi. Natijaga asoslangan ustama va mukofotlar xodimni samarali ishlashga undaydi. Biroq bunday to'lovlar aniq va tushunarli mezonlar asosida belgilanmasa, rag'batlantirish tizimi kutilgan natijani bermasligi mumkin. Demak, mehnatga haq to'lash daromadni taqsimlash bilan birga, xodim faoliyatini boshqarish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Mehnat kodeksiga muvofiq ish haqi asosiy, ya'ni bazaviy va qo'shimcha, ya'ni o'zgaruvchan qismlardan tashkil topadi. Bazaviy qism haqiqatda ishlangan vaqt yoki bajarilgan ish uchun hisoblanadi. O'zgaruvchan qism esa mukofotlar, ustamalar va boshqa qo'shimcha to'lovlarni qamrab oladi.¹ Hisob amaliyotida ushbu to'lovlar ishlangan va ishlanmagan vaqt, rag'batlantiruvchi yoki kompensatsiya xususiyati hamda ularning moliyalashtirish manbalariga ko'ra ham guruhlanadi.

Buxgalteriya hisobida xodimga hisoblangan ish haqi korxona xarajati va, bir vaqtning o'zida, majburiyat sifatida tan olinadi. Soliqlar va boshqa ushlab qolishlar chegirilgach, xodimga to'lanadigan sof summa aniqlanadi. **19-son BHXS**ga ko'ra, xodim xizmat ko'rsatgan davrda kelgusida to'lanadigan summa bo'yicha majburiyat, korxona ushbu xizmatdan iqtisodiy naf olganida esa tegishli xarajat tan olinishi kerak.² Shuning uchun ish haqini hisobga olishda to'lov sanasidan ko'ra xodim mehnat qilgan davr muhim hisoblanadi.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq summalarining noto'g'ri tasniflanishi mahsulot tannarxi, davr xarajatlari, soliq majburiyatlari va moliyaviy natijalarning buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi mehnatga haq to'lashning iqtisodiy mazmunini tahlil qilish, uning asosiy tasniflarini tizimlashtirish hamda xodimlarga tegishli to'lovlarning buxgalteriya hisobi obyektlari sifatidagi xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnatga haq to'lash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. A. Smit ish haqini xodim mehnati evaziga shakllanadigan daromad va yaratilgan qiymatni taqsimlash shakli sifatida izohlagan.³ Ushbu qarash ish haqining iqtisodiy mohiyatini ochib bersa-da, zamonaviy rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlarning hisobdagi xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi.

G. Bekkerning inson kapitali nazariyasida xodimning ta'limi, malakasi va kasbiy tajribasi uning unumdorligi hamda daromadiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida baholanadi.⁴ Bu yondashuvga ko'ra, ish haqi faqat ishlangan vaqt uchun emas, balki xodimning bilim va ko'nikmalaridan foydalanish natijasi uchun ham to'lanadi. Biroq inson kapitalining qiymati xodim salohiyati amaliy mehnat natijasiga aylangandagina ish haqida namoyon bo'ladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ish haqini real daromad, xarid qobiliyati va iqtisodiy tengsizlik bilan bog'liq holda o'rganadi. Tashkilotning **“Global Wage Report 2024–2025”** hisobotida ish haqi o'sishini baholashda narxlar darajasi va daromadlarning taqsimlanishini ham hisobga olish zarurligi ta'kidlangan.⁵ Bu ish haqining nafaqat korxona xarajati, balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich ekanini anglatadi.

M.Sh. Mamatkulov va A.Z. Tabayev ish haqi hisobini tashkil etishda ishlangan vaqt, haq to'lash shakllari, ta'til haqi, nafaqalar va ish haqidan ushlab qolishlarni alohida hisob obyektlari sifatida ko'rib chiqqan.⁶ **19-son BHXS**da esa xodimlarga beriladigan to'lovlar iqtisodiy mazmuni va muddatiga ko'ra tasniflanib, xodim xizmat ko'rsatgan davrda tegishli xarajat va majburiyatni tan olish belgilangan.⁷

Adabiyotlar tahlili ish haqining iqtisodiy nazariya, inson kapitali va buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan alohida o'rganilganini ko'rsatdi. Mazkur tadqiqotda ushbu yondashuvlar birlashtirilib, mehnatga haq to'lashning iqtisodiy mazmuni, tasnifi va hisob obyektlari sifatidagi xususiyatlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi.

1 O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 248-249-moddalar.

2 IAS 19 “Employee Benefits”, 19-son “Xodimlarning daromadlari” BHXS.

3 Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Book I, Chapter VIII.

4 Becker G.S. *Human Capital*. Third edition. University of Chicago Press, 1994.

5 International Labour Organization. *Global Wage Report 2024–25*. Geneva: ILO, 2024.

6 Mamatkulov M.Sh., Tabayev A.Z. *Buxgalteriya hisobi*. Toshkent, 2022. 41–52-b.

7 IAS 19 “Employee Benefits”, 19-son “Xodimlarning daromadlari” BHXS.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mehnatga haq to'lashning iqtisodiy mazmuni, tasnifi va hisob obyektlari sifatidagi xususiyatlarini o'rganish uchun tizimli tahlil, taqqoslash, guruhlash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ish haqining xodim daromadi, korxona xarajati, moliyaviy majburiyat va rag'batlantirish vositasi sifatidagi jihatlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Mehnatga haq to'lash tarkibidagi to'lovlar iqtisodiy vazifasi, hisoblanish sababi va to'lov muddatiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Asosiy va qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, ustamalar, kompensatsiyalar hamda ishlanmagan vaqt uchun to'lovlarning hisobda tan olinishi taqqoslandi. Tadqiqotning axborot manbalarini O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, **19-son BHXS**, Xalqaro Mehnat Tashkiloti materiallari hamda mavzuga oid ilmiy va o'quv adabiyotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnatga haq to'lash hisobini tahlil qilishda ish haqining hisoblangan summasi bilan xodimga amalda beriladigan mablag'ni farqlash muhim. Milliy statistika qo'mitasi nominal hisoblangan ish haqini bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat uchun xodimga pul shaklida hisoblangan, soliqlar va boshqa to'lovlarni ham o'z ichiga oluvchi daromad sifatida izohlaydi.¹ Demak, statistik ko'rsatkich xodim qo'lga tegadigan sof mablag'ni emas, hisobda dastlab tan olinadigan yalpi ish haqini ifodalaydi(**1-jadval**).

1-jadval

O'zbekistonda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi dinamikasi

Yillar	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	Oldingi yilga nisbatan o'sish, %
2021	3 214,8	-
2022	3 882,2	20,8
2023	4 561,9	17,5
2024	5 360,9	17,5
2025	6 376,7	18,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. O'sish ko'rsatkichlari muallif tomonidan hisoblangan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha oylik nominal ish haqi **2021-yildagi** 3 214,8 ming so'mdan **2025-yilda** 6 376,7 ming so'mga yetgan. Besh yilda ko'rsatkich 3 161,9 ming so'mga yoki 98,4 foizga oshgan. Bu ish haqi qariyb ikki baravar ko'payganini bildiradi. Biroq mazkur o'sish nominal ko'rsatkich bo'lib, undan real daromad oshishi haqida xulosa chiqarishda narxlar o'zgarishini ham hisobga olish lozim.

Ish haqi miqdorining oshishi korxonalarda mehnat xarajatlari, xodimlar oldidagi majburiyatlar va ish haqiga bog'liq ajratmalar hajmini ham kengaytiradi. Natijada to'lovlarni noto'g'ri xarajat obyektiga olib borish moliyaviy natijalarga avvalgidan kattaroq ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ma'muriy xodimlarga hisoblangan ish haqining mahsulot tannarxiga kiritilishi tannarxni asossiz oshiradi. Ishlab chiqarish xodimlari ish haqining davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi esa mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish qiymatini kamaytirib ko'rsatadi.

2025-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ham sezilarli farqlar kuzatilgan. Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida o'rtacha oylik ish haqi 17 597,5 ming so'mni, axborot va aloqa sohasida 15 298,1 ming so'mni tashkil etgan. Ta'lim sohasida ushbu ko'rsatkich 4 372,0 ming so'm, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda esa 3 909,3 ming so'm bo'lgan.⁸ Moliyaviy faoliyatdagi o'rtacha ish haqi sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatkichdan 4,5 baravar yuqori. Bunday tafovut mehnatga haq to'lashda malaka darajasi, mehnat bozoridagi talab, javobgarlik va ish natijasiga bog'liq turli tizimlardan foydalanilishini ko'rsatadi(**2-jadval**).

Hisob nuqtayi nazaridan mehnatga haq to'lash bilan bog'liq summalarni quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq:

8 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi: 2025-yil yanvar-dekabr*. Toshkent, 2026. Ma'lumotlar dastlabki bo'lib, press-reiz metodologiyasiga ko'ra kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.



2-jadval

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq asosiy hisob obyektlari

To'lov yoki hisob-kitob turi	Iqtisodiy mazmuni	Buxgalteriya hisobidagi xususiyati
Asosiy ish haqi	Ishlangan vaqt yoki bajarilgan ish uchun haq	Tegishli faoliyat xarajati va xodim oldidagi majburiyat
Mukofot va ustamalar	Natija, malaka yoki alohida sharoit uchun rag'bat	Belgilangan mezon bajarilganda xarajat va majburiyat sifatida tan olinadi
Ta'til va kafolatli to'lovlar	Ishlanmagan, biroq haq to'lanadigan davr uchun summa	Tegishli davr xarajati yoki shakllantirilgan majburiyat sifatida aks ettiriladi
Kompensatsiya to'lovlari	Alohida mehnat sharoiti yoki xodim xarajatini qoplash	Mazmuniga qarab mehnat xarajati yoki boshqa xarajat sifatida tasniflanadi
Ish haqidan ushlab qolishlar	Soliq va boshqa qonuniy chegirmalar	Xodim oldidagi qarzni kamaytirib, budget yoki boshqa shaxslar oldida majburiyat yaratadi
Ish beruvchining ijtimoiy to'lovlari	Xodim mehnatidan foydalanish bilan bog'liq qo'shimcha xarajat	Xodimning sof ish haqiga kirmaydi, ammo korxona xarajati va majburiyati hisoblanadi

Mehnat kodeksida ish haqi bazaviy va o'zgaruvchan qismlarga ajratilgan. Bazaviy qism ishlangan vaqt yoki bajarilgan ish uchun hisoblanadi, o'zgaruvchan qism esa mukofot, ustama va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlarni qamrab oladi.⁹ Biroq buxgalteriya hisobida mazkur tasnifni to'lovning qaysi davrga, bo'linmaga va xarajat obyektiga tegishli ekanini ko'rsatuvchi analitik ma'lumotlar bilan to'ldirish zarur.

Tahlil natijasida ish haqi hisobining uchta o'zaro bog'liq bosqichi aniqlandi. Birinchi bosqichda xodim mehnati asosida yalpi ish haqi hisoblanib, xarajat va majburiyat tan olinadi. Ikkinchi bosqichda soliqlar va boshqa ushlab qolishlar alohida majburiyatlarga ajratiladi. Uchinchi bosqichda xodimga sof ish haqi to'lanib, uning oldidagi qarz kamaytiriladi. **19-son BHXS** talablariga ko'ra ham xarajat va majburiyat xodim xizmat ko'rsatgan davrda tan olinishi kerak.¹⁰

Shunday qilib, mehnatga haq to'lash hisobining ishonchligi faqat ish haqini matematik jihatdan to'g'ri hisoblash bilan belgilanmaydi. Har bir to'lovni iqtisodiy mazmuni, yuzaga kelish davri va xarajat markazi bo'yicha to'g'ri tasniflash zarur. Aynan shu yondashuv mahsulot tannarxi, majburiyatlar va moliyaviy natijalarning haqqoniy shakllanishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, **olib** borilgan tadqiqot mehnatga haq to'lashni faqat xodimga pul to'lash jarayoni sifatida baholash yetarli emasligini ko'rsatdi. Uning iqtisodiy mazmuni xodim daromadi, korxona xarajati, mehnatni rag'batlantirish vositasi va ish beruvchining moliyaviy majburiyati kabi o'zaro bog'liq jihatlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli ish haqi miqdorini belgilashda ishlangan vaqt bilan birga xodimning malakasi, bajarilgan ish sifati, javobgarlik darajasi va erishilgan natijalar ham inobatga olinishi lozim.

Tahlil natijasida mehnatga haq to'lash bilan bog'liq summalarni asosiy va qo'shimcha ish haqi, rag'batlantiruvchi ustamalar, kompensatsiyalar, ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar, ish haqidan ushlab qolishlar hamda ish beruvchining ijtimoiy to'lovlarga ajratish zarurligi aniqlandi. Bunday tasnif har bir summaning iqtisodiy vazifasi va hisobdagi o'rnini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Hisoblangan yalpi ish haqi korxona uchun xarajat va xodim oldidagi majburiyatni yuzaga keltirsa, ushlab qolishlar boshqa shaxslar yoki budget oldidagi alohida majburiyatlarni shakllantiradi.

2021–2025-yillarda O'zbekistonda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining 98,4 foizga oshgani mehnat xarajatlarining korxona moliyaviy natijalariga ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi miqdorlarining sezilarli farqlanishi esa yagona haq to'lash usulidan foydalanish barcha sohalar uchun bir xil natija bermasligini anglatadi. Korxona o'z faoliyati, mehnat sharoiti va xodimlar vazifalariga mos haq to'lash tizimini shakllantirishi kerak.

Mehnatga haq to'lash hisobining ishonchligini oshirish uchun analitik hisobni xodimlar, bo'linmalar, to'lov turlari va xarajat obyektlari kesimida yuritish maqsadga muvofiq. To'lovlarni xodim mehnat qilgan davrda tan

9 O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 248–249-moddalar.

10 IAS 19 "Employee Benefits", 19-son "Xodimlarning daromadlari" BHXS.



olish, mukofotlash mezonlarini aniq belgilash va hisob-kitoblarni raqamli nazorat vositalari yordamida tekshirish tavsiya etiladi. Ushbu choralar mahsulot tannarxi, xodimlar oldidagi majburiyatlar va moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel. (URL: <https://lex.uz/docs/-2931253>)
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O'RQ-798-son, 2022-yil 28-oktabr. (URL: <https://lex.uz/docs/-6257288>)
3. International Accounting Standards Board. IAS 19 "Employee Benefits". IFRS Foundation. (URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-19-employee-benefits/>)
4. International Labour Organization. *Global Wage Report 2024-25: Is Wage Inequality Decreasing Globally?* Geneva: ILO, 2024. (URL: <https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/global-wage-report-2024-25-wage-inequality-decreasing-globally>)
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi: 2025-yil yanvar-dekabr*. Toshkent, 2026. (URL: https://stat.uz/img/news/ish-haqi--uz-21_01_p64662.pdf)
6. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Book I, Chapter VIII: Of the Wages of Labour. London, 1776. (URL: <https://www.adamsmithworks.org/documents/chapter-viii-of-the-wages-of-labour>)
7. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. Third Edition. Chicago: University of Chicago Press, 1994. (URL: <https://www.nber.org/books-and-chapters/human-capital-theoretical-and-empirical-analysis-special-reference-education-third-edition>)
8. Mamatkulov M.Sh., Tabayev A.Z. *Buxgalteriya hisobi*. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. - 126 b. (URL: <https://staff.tiiame.uz/storage/users/584/books/LAHeKuTnssXOVNvYzB5N79FQowXUw52iQmjQa0rd.pdf>)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100